

# **O‘qish savodxonligi fani**





“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz.

# Zamonaviy ta'lim bugungi kun o'quvchilariga quyidagilarni o'rgatishi kerak:

Kompleks vazifalarni hal qilish;

Bilimlar, mantiq, tahlil, mushohadaga tayangan holda tanqidiy fikrlash, fikr-mulohazalarni shakllantirib, qaror qabul qilish;

Ijodiy fikrlash;

Insonlar bilan hamkorlik qilish;

Jamoadada ishlash;

O'zining va boshqalarning emotsiyalarini (his-tuyg'ularini) to'g'ri baholash, ularni boshqarish, emotsional intellektga ega bo'lish;


Diqqatni bir vazifadan boshqasiga tez qarata olish, moslashuvchan bo'lish.

Buning uchun ta'lim jarayonida "4K" modelini qo'llash kerak.

# 4 “K” modeli

1. Kritik (tanqidiy) fikrlash ;
2. Kreativlik (ijodiy yondashuv);
3. Kommunikatsiya (muloqot qilish);
4. Kooperatsiya (jamoada ishlash).

2023-2024-o'quv yilidan “Ona tili” va “O'qish savodxonligi” darsi alohida o'qitiladi.



*“Qum soati”  
mashqi*

# Darslik Tasavvuringiz

*O‘qish savodxonligi*



*O‘qib  
tushunish  
ko‘nikmasi*

*Tinglab  
tushunish  
ko‘nikmasi*

*o‘qish malaka  
sifatlarini  
takomillashtirish*

*Nutq  
so‘zlash  
ko‘nikmasi*

**O‘qish savodxonligi  
fanini o‘qitishda:**

# *O'qish malaka sifatлари:*

**O'qish malakalari** deganda asar matnini **to'g'ri, tez, ongli** va **ifodali o'qish** tushuniladi. O'qish malakasining sifatлари o'zaro bog'liq bo'lib, ularning asosi ongli o'qish hisoblanadi. Muayyan tezlikda va to'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi. To'g'ri, tez va ongli o'qish esa ifodali o'qishning asosi hisoblanadi.



# *O‘qib tushunish ko‘nikmasi:*

**1. Matnlarda ma’lumotni topish.**

**2. Ma’lumotni integratsiyalash va tahlil qilish.**

**3. Matnning mazmun va shaklini tushuntirish va baholash.**

**4. Matndagi ma’lumotdan foydalanish.**

**5. Jadval, taqvim, lug‘atdagi ma’lumotlarni o‘qib tushunish.**

**O‘qib tushunish** jarayonida o‘quvchi matndagi so‘zlarning ma’nosini bilishi muhimdir.

# *Tinglab tushunish ko'nikmasi:*

**1. O'zgarar nutqini eshitib, tushuna olish.**

**2. Ma'lumotni anglash va tahlil qilish.**

**3. Suhbat jarayonida savollarga javob bera olish.**

# *Nutq soʻzlash koʻnikmasi:*

1. Adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ravon soʻzlay olish;

2. Muloqot odobiga rioya qilish;

3. Oʻz fikrini bildirish;

4. Suhbat jarayonida savollar bera olish;

5. Asar mazmunini qayta hikoyalash, gaplarni toʻgʻri tuzish.

# *Malakali kitobxon o‘qishning har uch turini bilishi zarur.*

Dars jarayonida o‘z qo‘llanish o‘rni va afzalliklari inobatga olingan holda o‘qishning uch turidan foydalaniladi:

**ovozli o‘qish, ichda o‘qish, shivirlab o‘qish.**

# O‘qish savodxonligi darsi

Sinflar kesimida	Haftasiga	Jami
1-sinf	4 soat	68 soat
2-sinf	3 soat	102 soat
3-sinf	3 soat	102 soat
4-sinf	3 soat	102 soat

# O‘qish savodxonligi fanidan 1-sinf uchun yillik taqvim reja:

T/r	Mavzular	Soat
1	Qanday yaxshi, qanday soz, o‘qishni bilsang o‘zing	1
<b>I BO‘LIM. AZIZ VATAN, JONAJON VATAN</b>		
2	Sen sevgan odamlar makoni	1
3	O‘zbekiston-ozod diyori	1
4	Vatan-himoyachilari	1
5	Yurt-qalqonlari	1
6	O‘zbekiston-jonajon yurtim mening	1
7	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
8	Nazorat ishi-1	1
<b>II BO‘LIM. QOYILMAN QISH ISHIGA, ZAVQ BERADI KISHIGA</b>		
9	O‘lkamda qish	1
10	Rosa maza qish, qorlari – kumush	1
11	Qishda jonivorlar hayoti	1
12	Qish faslining erkasi	1
13-14	Qishda bo‘lgan voqealar	2
15	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
16	Nazorat ishi-2	1
<b>III BO‘LIM. KITOB BILIM BULOG‘I, O‘QUVCHINING O‘RTOG‘I</b>		
17	Fan yo‘lida nur-oftob	1
18	Qiziqarli mashg‘ulot	1
19	Eng yaxshi sovg‘a	1
20	Kitobsevar bobom	1
21	Kitob-buyuk donishmand	1
22	Kitoblarning makoni	1
23	Kitobni toza saqlang	1
24	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
25	Nazorat ishi-3	1
<b>IV BO‘LIM. BAHOR KELDI, KELADI NAVRO‘Z</b>		
26	Salom senga, gul bahor	1
27	Ko‘klam -yashnaydi olam	1
28	Onajonim, mehribonim	1
29	Uchib keladi qushlar	1
30	Ko‘klamni boshlab kelding	1
31	Bahorning taomi audiomatn	1
32	Bahorning taomi	1
33	Butun borliq seni der	1
34	Kulib keldi Navro‘zim	1
35	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
36	Nazorat ishi-4	1
Jami:		36

T/r	Mavzular	Soat
<b>V BO‘LIM. BU-KIM, U-NIMA?</b>		
1	Buyuk ajdodlar	1
2	Olamga mashhur Sohibqiron	1
3	Siz xabarni qanday jo‘natasiz?	1
4	Yulduzlar siri	1
5	Yulduzlar ilmini o‘rgangan bobom	1
6	Koinotga parvozlar	1
7	Zahiriddin Muhammad Bobur	1
8	Suv tomchisining sayohati	1
9	Ajoyib so‘zlar	1
10	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
11	Nazorat ishi-5	1
<b>VI BO‘LIM. QANDAY YAXSHI, BOLALAR</b>		
<b>GO‘ZAL XULQ, ORASTALIK</b>		
12	Odobning boshi til	1
13	Kiyinish odobi	1
14	Odobli bola audiomatn	1
15	Rostgo‘ylik inson ko‘rki	1
16	Orastalik qanday soz	1
17	Yomon odatdan saqlaning	1
18	Vaqtдан unumli foydalaning	1
19	Yaxshilik qilish – odob-axloqdan	1
20	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
21	Nazorat ishi-6	1
<b>VII BO‘LIM. XALQ OG‘ZAKI IJODI – BEHISOB XISLAT KONI</b>		
22	Ertaklar yaxshilikka yetaklar	1
23	Ertaklardan ol saboq	1
24	Zukko bo‘lgin, bolajon	1
25	Rivoyatda ibrat bor	1
26	Qo‘shiqqa bo‘lamiz jo‘r	1
27	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
<b>VIII BO‘LIM. YOZ -O‘TADI SOZ</b>		
28	Yoz – naqadar soz	1
29	Mevalar g‘arq pishgan mahalda	1
30	Quvnoq o‘tsin go‘zal yoz	1
31	O‘tilganlarni mustahkamlash	1
32	Nazorat ishi-7	1
Jami:		32

# O‘qish savodxonligi fanidan 2-sinf uchun yillik taqvim reja:

T/r	Mavzular	Soat
<b>ONA VATAN BAG‘RIDA BAXTIYOR AVLOD!</b>		
1	Vatanim–jannatmakon O‘zbekiston	1
2	Ona bitta, Vatan yagona	1
3	Vatan – ostonadan boshlanadi	1
4	Maktabim – qutlug‘ makonim	1
5	Toshkent – O‘zbekiston poytaxti	1
6	Serquyosh o‘lka	1
7	Yoshi ulug‘ shaharlarimiz	1
8	Til – millat ko‘zgusi	1
9	Ochiq osmon ostidagi muzey audiomatn	1
10	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
11	Nazorat ishi-1	1
<b>KITOB – NOYOB XAZINA, BILIM – TUGANMAS BOYLIK</b>		
12	Kitob – beminnat do‘st	1
13	Kitob – bebaho boylik	1
14	Kitob o‘qigan bola...	1
15-16	Gulzor shahrining mittilari N.Nosov	2
17	Uzum J.Rumiy audiomatn	1
18	Ilm – yorug‘lik	1
19	Kitobga sodiq bo‘ling	1
20	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
<b>IXTIRO VA KASHFIYOTLARGA BOY OLAM</b>		
21	Juda foydali ixtiro audiomatn	1
22	Kashfiyotchi bobolar	1
23	O‘z aksini ko‘rish orzusi	1
24	Yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq	1
25	Oshxona buyumlari	1
26	Vaqt qadri	1
27	Nazorat ishi-2	1

T/r	Mavzular	Soat
<b>HUNAR-ZAR, KASB-GAVHAR</b>		
1	Hunarmandchilik turlari	1
2	Har kasbning o‘z gashti bor	1
3	Yosh musavvir	1
4	Kasbning yomoni yo‘q	1
5	Sharafli kasb	1
6	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
<b>ENG KATTA BOYLIK-SALOMATLIK</b>		
7	Ehtiyot bo‘ling	1
8-9	Ko‘zga ko‘rinmas olam	2
10	Mashhur tabib bobomiz	1
11	Tumovdan saqlaning	1
12	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
13	Nazorat ishi-3	1
<b>BIR-BIRINI KUZATADI FASLLAR</b>		
14	Har faslning o‘z ziynati bor	1
15	Yil fasllari nega almashinadi?audiomatn	1
16	Qish zavqi	1
17	Zumrad bahor	1
18	Yoz seni sog‘indik	1
19	Oltin kuz	1
20	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
21	Nazorat ishi-4	1
		21

# O‘qish savodxonligi fanidan 2-sinf uchun yillik taqvim reja:

T/r	Mavzular	Soat
<b>ERTAKLARNING SEHRLI OLAMIDAN BAHRA OLAMIZ</b>		
1	Ertaklar olami	1
2-3	Hayvonlar haqida ertaklar	2
4	Boyo‘g‘li bilan qarg‘a Yapon xalq ertagi audiomatn	1
5	Tulkinging hiylasi ko‘p...	1
6	Adabiy ertaklar	1
7	Tabiat in‘omi	1
8	Bog‘da	1
9	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
10	Nazorat ishi-5	
<b>BUYUKLAR XOTIRADA MANGU YASHAYDI</b>		
11	Biz buyuklar avlodimiz audiomatn	1
12	Buyuk sarkarda	1
13	Munajjim bobom	1
14	Ulug‘ shoir va mutafakkir	1
15	Adolatli shoh va buyuk shoir	1
16	Qatag‘on qurbonlari xotirasi	1
17	Mehnatsiz taxt kelmas	1
18	Yuksak ma‘naviyatli avlod	1
19	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
20	Nazorat ishi-6	1
<b>MILLIY AN‘ANA VA QADRIYATLAR E‘ZOZDA</b>		
21	Oila – muqaddas qo‘rg‘on	1
22	Bebaho qadriyatlar	1
23	Ta‘zim To‘lqin Rasulov audiomatn	1
24	Ibratli amallar va go‘zal an‘analar	1
25	Fayzli ko‘chalar – mahallamiz ko‘rki	1
26	Odob – salomdan boshlanadi	1
27	Bayramlari ko‘p yurtim	1
28	Navro‘z taomlari	1
29	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1

T/r	Mavzu	Soat
<b>ISH QUROLING SOZ BO‘LSA, MUSHKULING OSON BO‘LUR</b>		
1	Bizning yordamchilar	1
2	Elektr manbalari	1
3	Transport turlari	1
4	Uch ko‘zli nazoratchilar audiomatn	1
5	Ajoyib topilma	1
<b>DO‘STING KO‘P BO‘LGAN SAYIN OLAM NURGA TO‘LADI</b>		
6	Do‘stlikda hikmat ko‘p	1
7	Do‘stlikning qudrati	1
8	Yovlashmoq — oson, yarashmoq — qiyin	1
9-10	Do‘stlik– mustahkam rishta	1
11	Do‘st har vaqtda qo‘llaydi	
12	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1
13	Nazorat ishi-8	1
<b>SHIRIN-SHAKAR SO‘ZLASANG, SEHRGARDEK BO‘LASAN!</b>		
14-15	Nutq sehri	2
16	Avval – o‘yla, keyin – so‘yla	1
17	Jumlangiz bo‘lsin to‘g‘ri	1
18	Tilga bo‘ling hurmatda	1
<b>TABIATNI ASRAYMIZ, UNGA OZOR BERMAYMIZ.</b>		
19	Suv-zaminning yuragi	1
20-21	Tabiatni asrash burchimizdir	2
22	Tabiat qo‘ynida...	1
23	O‘tilganlarni mustahkamlash	1
24	Nazorat ishi-9	1
		24



# O‘qish savodxonligi fanidan 3-sinf II chorak uchun yillik taqvim reja:

T/r	Mavzular	Soat	Sana	Uy ishi	Izoh
<b>Ish quoling soz bo'lsa mushkuling oson bo'lur</b>					
1	Arazchi svetofor Nasiba Erxonova	1			
2	Chin do'st Nasiba Erxonova	1			
3	Tez yordam yordamga shay Zuhra Ro'ziyeva	1			
4	Yo'l harakati qoida va belgilari(audiomatn)Internet sahifalari	1			
5	Mehnat qurollari nima deydi? Ne'mat Dushayev	1			
6	Igna Hakim Nazir	1			
7	Soat Zahro Hasanova	1			
8	STO'	1			
9	Bo'lim yuzasidan takrorlash	1			
10	Nazorat ishi	1			
<b>Ey, yoqimtoy qish, qoringga olqish</b>					
11	O'lkamizda qish (audiomatn)	1			
12	Qish tasbehlari Dilshod Rajab	1			
13	Enajonim ertak aytadi Xudoyberdi To'xtaboyev	1			
14	Qish qori bilan Po'lat Mo'min	1			
15	STO'	1			
16	Yaxshilik izlagan bola	1			
17	Do'stlik yo'lagi Rivoyat	1			
18	Xush kelibsan, Yangi yil Abdulla Oripov	1			
19	Bo'lim yuzasidan takrorlash	1			
20	Nazorat ishi	1			
21	STO'	1			

# O‘qish savodxonligi fanidan 4-sinf II chorak uchun yillik taqvim reja:

T/r	Mavzular	Soat	Sana	Uy ishi	Izoh
<b>Do‘st do‘stga oyna</b>					
1	Kichik ustoz Ashrali Jo‘rayev	1			
2	Do‘st do‘stga oyna ekan Quddus Muhammadiy	1			
3	Abu Ali ibn Sino Rivoyat	1			
4	Do‘stlikda gap ko‘p o‘zbek xalq ertagi	1			
5	Tovuq bilan Tulki Ezop	1			
6	STO‘	1			
7	Bolim yuzasidan takrorlash	1			
8	Nazorat ishi	1			
<b>Davlatimiz ramzlari-Vatanimiz timsoli</b>					
9	Qomusim Mansur Aslonov	1			
10	Vatan- jonfidolikdir Boltaboy Eshmurotov	1			
11	O‘zbekiston madhiyasi Abdulla Oripov	1			
12	Davlat ramzlari	1			
13	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1			
14	STO‘	1			
<b>Ey, yoqimtoy qish, qoringga olqish</b>					
15	Chang‘i uchaman Qambar ota	1			
16	Bir hovli qush 1-qism M. Hamidova	1			
17	Bir hovli qush 2-qism M. Hamidova	1			
18	Qishki ta‘til Qambar ota	1			
19	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1			
20	Nazorat ishi	1			
21	STO‘	1			


# *O'quv majmua tarkibi:*

**1. Darslik** (har chorak uchun alohida qism);

**2. Mashq daftari** (har yarim yillik uchun alohida);

**3. O'qituvchi kitobi.**

“O‘qish savodxonligi” darsligidan o‘quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy topshiriqlar joy olgan. Bunday topshiriqlar vositasida o‘quvchida matnni tushunish, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi.



1. Rasm asosida suhbatlashing.



bilimlar  
maskani

ikkinchi  
uyimiz

muqaddas  
dargoh

2. O'zingiz o'qiydigan maktab haqida so'zlab bering.



## Salom, maktab!

*Muhiddin Omon*

Salom, maktab, jon maktab,  
Bilimlarga kon maktab.  
Aql-u odob, tarbiya  
Berguvchi makon maktab!

Ustozlarim mehribon,  
O'qi, derlar bearmon.  
Sen Istiqlol farzandi,  
Kamolga yet, bolajon!

Sog'lom bo'l-u, polvon bo'l,  
El-u yurtga posbon bo'l.  
Bel olishsang maydonda,  
Or-nomusi osmon bo'!

Vatanning baxti uchun,  
Sarf aylagin bor kuching.  
Olib elning duosin,  
Ravo qil muddaosin.

Bu tilakka labbay deb,  
Javob beraman tayin.  
Ma'rifat ziyosidan  
Ulg'ayaman kun sayin.

O'zbekiston nomini  
Jahonga qilgum doston,  
Chunki boshqa topilmas,  
Dunyoda bunday bo'ston!



1. She'ri o'qiyotganingizda ko'z oldingizga nimalar keldi?
2. She'rda maktabga qanday ta'rif berilgan?
3. Nima uchun maktabni bilimlar koni deb ataymiz?





muddao – kishining dilidagi maqsadi, niyati  
bo'ston – gullagan, yashnagan joy  
ma'rifat – kishilarning bilimini, madaniyatini  
oshirishga qaratilgan faoliyat  
jahon – olam, dunyo  
tilak – istak, xohish



1. Jahon, tilak so'zlarining o'miga ma'nodosh so'zni qo'yib, she'ni qayta o'qing.
2. Nimani kuzatdingiz?

Quyida berilgan harflardan boshlanadigan maktabga oid so'zlarni toping.

M

A

K

T

A

B

3. Hikmatli so'zni o'qing. Mazmunini izohlang.

Maktab – kema, ilm – dengiz.

4. Fikrni davom ettiring.

Maktab – ikkinchi uyimiz, chunki...



She'ni ifodali o'qing.



Rasmlarga diqqat bilan qarang.



Kitoblar insonga qanot bo'la oladimi? Nima uchun?



## Alisher va kitob

*Qudrat Hikmat*

Kitobga o'ch o'g'ilcham  
Oltin topgan singari  
Chiqsa yangi bir asar,  
O'qir mendan ilgari.

Mayli, bo'lsin hikoya,  
Yoki to'rt yo'l quvnoq she'r.  
Ayyonchada muk tushib,  
Sharillatar Alisher.

Qosh qorayib ketguncha  
Qo'ldan tushmas kitobi.  
Unga yoqqan she'rlarning  
Hozircha yo'q hisobi.

Olimdek serharakat,  
Ishlar puxta, berilib.  
Uncha-muncha yoshlardek  
Oshib ketmas kerilib.

Turnaqator savolga  
Askar kabi doim shay.  
Hozirjavob bo'lmasdi,  
Shuncha kitob o'qimay.



1. She'ning qahramoni kim? U qanday bola ekan?
2. Hozirjavob so'ziga ta'rif bering.
3. She'rdan qanday xulosa chiqardingiz?
4. Kitob tanlashda nimaga e'tibor berish kerak deb o'ylaysiz?



kitobga o'ch – kitob o'qishga nihoyatda berilgan muk tushib – biror narsa ustida qunt bilan o'tirish qosh qoraydi – kech kirdi, oqshom



Rasm mazmunini ifodalovchi og'zaki gaplar tuzing.



Jadvaldan so'zlarning ma'nodoshini toping.

Oltin

Puxta

Quvnoq

pishiq	xushchaqchaq	mahkam	xursand
zar	mustahkam	yaltiroq	chidamli



Shu so'zlar bilan gaplar tuzing.



So'z o'yini.

K harfi bilan boshlanib, k harfi bilan tugaydigan so'zlar toping.



She'ni yod oling. Ajdodlarimiz kitob o'qishning foydasi haqida aytgan hikmatli so'zlaridan topib yozing.



Quyosh osmonda baland ko'tarilganda, uning nurlari Yerga to'g'ri tushadi. Shu sababli, uni kuchliroq qizdiradi va Yer yuzi issiq bo'ladi.

Quyosh nurlari Yerga qiyalab tushganda, Yerni paypaslab o'tib ketgandek bo'ladi. Bunday holatda Yer yuzida sovuq turadi.



Rebusni yeching. Hasharotlar nomini toping.



+ chi



+



xon +



i



+



Qishda uyquga ketadigan hayvonlar nomini toping.

Q -




+ xon



+



Ekvator – bu bizning sayyoramizni ko'ndalangiga bo'lib turgan xayoliy chiziq. Ekvatorga qanchalik yaqin bo'lsa, o'sha yer shunchalik issiq, chunki Yerning bu qismiga quyosh yaxshi nur sochadi. Shimoliy va Janubiy qutblarga quyosh nuri kamroq tushadi, bu yerda muz va qor hatto yozda ham erimaydi.



21-mart hamda 23-sentabrda kun va tun davomiyligi tenglashadi.  
22-iyunda kunning davomiyligi eng uzun, tunning davomiyligi qisqa bo'ladi.  
22-dekabrda esa tunning davomiyligi eng uzun, kunning esa aksincha.



Fasllar haqida qiziqarli ma'lumotlar toping. Sizga qaysi fasl ko'proq yoqadi? Nima uchun? Fikringizni izohlab kichik matn yozing.





So'zdagi bo'g'inlarni o'z o'rniga qo'yib, maqollarni o'qing.

Yoz va me si — qish zi xa si na.

ning Yoz g'i yom ri dan qo'rq,

ning Qish — ro dan qi vi.

ning Yoz ni ku — yuz li tur,

ning Qish ni ku — qirq li tur.



Tez aytish.



Hikoyani o'qing va mazmunini so'zlab bering.  
Yoz faslini ifodalovchi rasm chizing.



1. Topishmoqning javobini toping.

Daraxtlarning barglari,  
Rang olar oltin misol.  
Qay faslda, ayt Muslim,  
Yuz beradi shunday hol?!



2. O'ylab ko'ring, nega bu faslni oltin kuz deb ataymiz? Fikringizni izohlang.



Kuz

Shuhrat

Tongda turib bog'ga kirdim,  
Miltillar qirov.  
Go'yo tunda ko'kdan shakar  
Sepgandek birov.

Erta bahor ekan edim  
O'n besh tup ko'chat.  
Bargin to'kib, yosh novdasi  
Qolibdi faqat.

## Ochiq osmon ostidagi muzey



**1-topshiriq.** Audiomatnda ishtirok etgan so'zlarni topib bo'yang.

Qohira

Ichan qal'a

Toshkent

2 qism

Dishan qal'a

Qo'qon

10 ta darvoza

Munis

al-Xorazmiy

Zarafshon

dushman

Alisher Navoiy



**2-topshiriq.** Tushirib qoldirilgan ma'lumotlarni o'z o'rniga qo'ying.

Xiva ikki qismdan iborat: \_\_\_\_\_ qism – Ichan qal'a va \_\_\_\_\_ qism – Dishan qal'a. Bu shaharning Ichan qal'a qismi hatto \_\_\_\_\_ ro'yxatiga kiritilgan 100 shahardan biri. Xiva dunyoga \_\_\_\_\_, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Munis va Ogahiy kabi buyuk zotlarni voyaga yetkazgan azim zamin hisoblanadi.

Dishan qal'a esa shaharni tashqi \_\_\_\_\_ dan himoya qilish uchun qurilgan. Uning \_\_\_\_\_ darvozasidan Xivaning ichki qismiga kirilgan.

**Qo'yish uchun so'zlar:** al-Xorazmiy, Jahon merosi, ichki, tashqi, dushman, o'nta.



**3-topshiriq.** Mazmunan bog'lang.

Ichan qal'a      tashqi qism

Dishan qal'a      ichki qism



**4-topshiriq.** Siz yurtimizdagi yana qaysi shaharlarga sayohat qilgan bo'lardingiz? Nima uchun?

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....





Hamma bolalar: "To'g'ri, dunyoda sehri qalam yo'q, lekin mohir qo'llar ko'p. Gap qo'lni o'rgatishda!" – deya tog'asining gapini ma'qullashibdi.

Shu kundan boshlab Alijon har kuni qo'lga qog'oz, qalam olib rasm chizadigan bo'libdi. Shunday qilib, hozirda Alijon rasm chizishda tog'asidan qolishmas emish.



1. Alijon qayerga bordi?
2. Nima uchun Alijon tog'asidan qalam so'radi?
3. "Mohir qo'llar" deganda nimani tushunasiz?
4. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?
5. Fikringizni izohlang.
6. Matndan Alijon va tog'asining aytgan gaplarini topib o'qing.



Matndan quyigadi so'zlar bilan boshlanadigan gaplarni topib o'qing.

U chizgan olmalar...

Xohlagan narsalaringizni...

Biroq yaxshi rasm...

To'g'ri, dunyoda sehri...

Shu kundan boshlab...



Rassomga nimalar kerak?



Tushirib qoldirilgan so'zlarni o'z o'miga qo'ying va maqollarni o'qing.


Avval \_\_\_\_\_, keyin \_\_\_\_\_.

Avval \_\_\_\_\_, keyin \_\_\_\_\_.

Qo'yish uchun so'zlar: bil, o'rgan, qil, o'rgat.



Tez aytish.



Hikoyani o'qing. Mazmunini so'zlab bering. O'zingiz ham yoqtirgan narsangizni chizishga harakat qiling.

## Yosh musavvir



**1-topshiriq.** So'zni to'g'ri o'qisangiz, muallif Turg'unboy G'oyipov qayerda tavallud topganini bilib olasiz.



**2-topshiriq.** So'zlarning birinchi bo'g'inlaridan yangi so'z hosil qiling.

Mo'yna + qadam + lampa \_\_\_\_\_


Bo'yin + yoqtirmoq \_\_\_\_\_

Qobiq + g'oz \_\_\_\_\_

Patir + litsey + raqam \_\_\_\_\_



**3-topshiriq.** Ma'nodosh so'zlarni aniqlang va bir xil rangga bo'yang.



# Kitobxon kundaligi

ASAR MUALLIFI .....

ASAR NOMI .....

JANR ..... SAHIFALAR SONI .....

ASOSIY QAHRAMONLAR .....

O'QILGAN SANA: ..... dan ..... gacha.

QISQACHA MAZMUNI

SIZNING BAHONGIZ



.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

.....

SIZGA YOQQAN VOQEA YOKI QAHRAMONLAR RASMINI CHIZING





## Ona Vatan

Miltiqboy Xonnazarov

Dunyoda onam aziz,  
Onamday Vatan aziz.  
Bu olamda jon aziz,  
Jondan ham Vatan aziz.

Onam hamda Vatanni  
Ko'zimdayin asrayman.  
Ikkisin hurmatini,  
Yuragimda saqlayman.

Onajonim bag'rida,  
O'ynab-kulib yayrayman.  
Ona Vatan qo'ynida,  
Bulbul bo'lib sayrayman.

Kelajakda, albat – men,  
Ulug' olim bo'laman.  
Vatanimning dong'in men,  
Dunyoga tarataman.



Quyidagi rebusda qanday  
ibora yashiringanini toping.



O'ylab ko'ring, nima uchun "Vatan" so'zini "ona" so'zi  
bilan birgalikda qo'llaymiz?



1. "Ona Vatan" deganda nimani tushunasiz?
2. O'ylab ko'ring, she'r kimlar tilidan aytilgan?
3. Vatanimiz nomini dunyoga taratish uchun nima qilishni xohlaysiz? Fikringizni tushuntiring.



1. She'mi ifodali o'qing.
2. She'rdan ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarni aniqlang.  
**Masalan:** dunyo-olam, ...
3. She'rdan qofiyadosh so'zlarni toping.  
**Masalan:** asrayman-saqlayman, ...

Topishmoqni o'qing. Javobini toping.

Paxta-dondan chambarak,  
Sakkiz qirra yulduzli.  
Humo qush baxtdan darak,  
Keng dala bog' tasvirli.  
Amudaryo, Sirdaryo  
Unda oqib o'tadi.  
Ayting-chi, bu tasvirni,  
Qayda ko'rsa bo'ladi?



**humo** – afsonaviy qush, baxt-saodat, erkinlik ramzi  
**chambarak** – aylana shaklida o'ralgan ramz – biror tushunchani ifodalovchi belgi, ishora



Bu sanalar nimani ifodalaydi?

1991-yil  
18-noyabr

1992-yil  
2-iyul

1992-yil  
10-dekabr



"Ona Vatan" she'rini yod oling.



**Darslik**

**Tasavvuringiz**

**O'qish savodxonligi**

**Natija**


**Esimda  
qoldi**



**Muhim  
bo'ldi**



**Qo'llayman**





**E'tiboringiz  
uchun  
rahmat!**

